ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 5

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 5

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

IDIOMALARNING KORPUS LINGVISTIKASIDAGI O‘RNI

Rajabov Shohrux Shavkat o‘g‘li
Termiz State University student
E-mail: shohruxrajabov200520@gmail.com
D.Ergasheva
Termiz State University student Ilmiy rahbar

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilini korpuslashtirishda asosiy e’tibor qaratilayotgan, madaniyatni tashuvchi presedent birliklar va idiomalarning korpusini yaratish bo‘yicha ilmiy mulohazalar keltirilgan. Korpus lingvistikasining asosiy vazifalari yoritib berilgan. O‘zbek tilshunosligida bu sohada qilinayotgan izlanishlar haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, bir qancha idiomalarning lingvistik korpusi ham tuzilgan. Misol tariqasida, maqoladagi frazeologizmlar kurpusi hamda tasviriy ifodalar korpusini keltirish mumkin.

Kalit so‘zlar: Korpus, korpus lingvistikasi, idioma, tasviriy ifoda, elektron baza, konsept, madaniyat, milliy korpus.

Abstract. This article presents scientific considerations on the creation of a corpus of precedent units and idioms that carry culture, which are the main focus of the Uzbek language corpus. The main tasks of corpus linguistics are highlighted. Information is provided about the research being conducted in this area in Uzbek linguistics. A linguistic corpus of several idioms has also been compiled. As an example, the corpus of phraseologisms and the corpus of figurative expressions in the article can be cited.

Keywords: Corpus, corpus linguistics, idiom, figurative expression, electronic database, concept, culture, national corpus.

Аннотация. В данной статье представлены научные соображения по созданию корпуса предшествующих единиц и идиом, несущих культурный подтекст, которые являются основным объектом исследования корпуса узбекского языка. Выделены основные задачи корпусной лингвистики. Приведена информация о проводимых в этой области исследованиях в узбекской лингвистике. Также составлен лингвистический корпус нескольких идиом. В качестве примера можно привести корпус фразеологизмов и корпус образных выражений, представленные в статье.

Ключевые слова: Корпус, корпусная лингвистика, идиома, образное выражение, электронная база данных, концепция, культура, национальный корпус.

KIRISH.

Til ma’naviy merosimizni asrash va boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tillarni saqlab qolish, ularni rivojlantirish milliy ma’naviyatni saqlab qolish va

ISSN 3030-3907

rivojlantirish demakdir. Zero, asl ma'naviyat faqat milliy shakldagina mavjud bo'ladi. Shu boisdan mamlakatimizda o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Tilimizning amaliy qo'llanishini oshirish, abadiyligini saqlab qolish, jahonga yoyish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapdi. Binobarin, tilshunos olimlarimiz o'zbek tilining milliy korpusini yaratishda izlanishlar olib bormoqda. Olimlarimiz korpus yaratishda fonetika, leksikologiya hamda matn ustida tadqiqot ishlarini yaratgan. Biroq hanuzgacha bu bo'limlar to'liq tizimlashtirilmadi. Axborot – texnologiya esa kun sayin taraqqiy etib, barcha sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Tilshunoslikda kompyuter texnologiyalari tilning keyingi hayotini belgilab beradigan asosiy vositaga aylanib ulgurdi. Professor Baxtiyor Mengliyev ta'kidlaganidek: "Axborot asrida rivojlanishga da'vogar har qanday til sun'iy intellekt tiliga aylanishi kerak. Ona tilimizning dunyo miqyosidagi nufuzi faqat tashviqot-targ'ibot bilan oshmaydi. Sun'iy intellektga doxil bo'lmagan tilning taraqqiyoti haqida gap ochish ham to'g'ri emas".[13] Shunday ekan, o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifaga aylanishi zarur. O'zbek tilining milliy korpusini yaratish bu nafaqat tilimizning mavqeyini mustahkamlaydi, balki madaniyatimizni jahonga yoyishga ham zamin yaratadi. Bugungi kunda ingliz va nemis madaniyati va urf-odatining jahonda ommaviy madaniyat sifatida tarqalishida til asosiy funksiyani bajarmoqda. Vaholangki, ushbu tillarning milliy korpusi o'tgan asrning 80-90-yillarida yaratilib bo'lingan. Bizning tilshunosligimizda esa kompyuter lingvistikasining tilni elektron tizimga dasturiy ta'minot asosida bo'ysundiradigan, ya'ni korpus bazasini yaratish bilan shug'ullanadigan korpus lingvistikasi yo'nalishi juda kech shakllandi.

ASOSIY QISM.

Avtomatik tarjima sohasi hozirda juda katta yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, istalgan tildagi shu millatga xos bo'lgan maqol, matal, ibora, aforizmlar, shuningdek, "xontaxta", "chopon", "mehmonxona", "so'ri", " shiypon" singari konsept so'zlar bir tildan ikkinchi tilga tabiiy tarjimadagidek aynan tarjima qilinmaydi. Lekin kompyuter lingvistikasi sohasida ko'plab yutuqlarga erishgan, sun'iy intellekt tiliga aylanib ulgurgan tillarda avtomatik tarjima jarayoni ancha sifatli. O'zbek tilida esa mashina tarjimasiga kiritilgan matn to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinadi. Matndagi ko'chma ma'noli so'z va jumlalar e'tiborga olinmaydi, chunki tilimizdagi frazeologizmlar, tasviriy ifodalar, aforizmlar va xalq og'zaki ijodining maqol, matal, topishmoq kabi kichik janrlarining korpusi yaxlit tizim holiga keltirilmagan.

[13] https://kun.uz/news/2020/10/18/baxtiyor-mengliyev-ozbek-tilining-ham-milliy-korpusi-yaratilishi-lozim

ISSN 3030-3907

Frazeologizmalar – tarkibidagi barcha so‘zlari ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan, odatda, ma’nosi bir so‘zga teng keluvchi turg‘un birikmalar. Bu barqaror birliklarning korpusini tuzishda quyidagi xususiyatlarini tizmga kiritish kerak:

1. Iboralarning sinonim variantlarini keltirish;
2. Ma’nosini to‘liq izohlash ;
3. Kamida ikkita xorijiy tildagi tarjimasini keltirish;
4. Kontekst ichida qo‘llanishini ko‘rsatish.

Iboralar korpusidagi bunday jihatlarni yanada kengaytirish mumkin. Jumladan, yuqoridagi ketma-ketlikka iboralarning antonimi, paronimi, ko‘p ma’noligi kabi xususiyatlarini qo‘shish mumkin. Quyidagi jadvalda frazeologizmlarning namunaviy tarzda tuzilgan lingvistik korpusi keltirilgan bo‘lib, bu izlanuvchilarga korpusi haqidagi boshlang‘ich tushunchalarga ega bo‘lishiga yordam beradi.

1-Jadval

№	Ibora	Sinonim variantlari	Ma’nosi	Ruscha / Inglizcha tarjimasi	Badiiy matnda qo‘llanishi
1	Og‘zi qulog‘ida	Boshi osmonga yetmoq, ichiga sig‘maslik, terisiga sig‘may ketmoq , masrur bo‘lmoq.	Juda xursand, shod bo‘lish.	Rus: Рот до ушей Eng: Wide grin	"Otabekning og‘zi qulog‘ida, ichiga sig‘mas shodlik bilan qaytib keldi."
2	Qovog‘idan qor yog‘moq	Chimiriq yozmaslik, qovog‘ini solmoq lab-lunjini osiltirmoq.	Kayfiyati juda yomon, vajohatli bo‘lish, o‘ta darajada xafa	Rus: Мрачнее тучи Eng: To look daggers	“Hoy bolam, namuncha sening qovog‘ingdan qor yog‘ilib turibdi, ayta qolsang-chi, kim kelyapti?” (G‘.G‘ulom. “Yodgor”)
3	Qo‘li gul	Hunari daryo, o‘n barmog‘i	Har qanday ishni san’at	Rus: Золотые руки	“Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor,

ISSN 3030-3907

		o‘n hunar, ishning ko‘zini biladigan, qilni qirq yoradigan.	darajasida bajarish.	Eng: Golden hands	qo‘li gul. Unga ayrim e’tibor qilish, shubhasiz, yaxshi.” (A.Qahhor. “Qo‘shchinor chiroqlari”)
4	Boshi osmonga yetmoq	Do‘ppisini osmonga otmoq, yetti iqlimni olmoq, og‘zi qulog‘ida bo‘lmoq, ko‘ngli shod bo‘lmoq.	Haddan tashqari quvonish, muvaffaqiyat.	Rus: На седьмом небе Eng: Over the moon	“O‘g‘lining yutug‘ini eshitgan onaning boshi osmonga yetdi”.
5	Yetti uxlab tushiga kirmaslik	Xayoliga keltirmaslik, tush ko‘ribdimi, o‘ylab ko‘rmaslik, tasavvur qilmaslik, anglamaslik, kutilmagan da bo‘lish.	Mutlaqo kutilmagan hodisa.	Rus: И во сне не снилось Eng: Never in a million years	“Abdushu kur tushida ham ko‘rmagan poytaxt teatrlarini maqtamoqchi bo‘lib endi so‘z boshlagan edi..” (Oybek. Qutlug‘ qon)
6	Tili qisqa	Bo‘yni egik, yerga kirib ketayozmoq, tilini qismoq, yuzi shuvut bo‘lmoq.	Aybi borligi uchun javob bera olmaslik, gapirmaslikka, e’tiroz bildirmaslikka majbur bo‘lmoq.	Rus: Быть в долгу Eng: At a disadvantage	“Uning tili qisiq bo‘lishiga sabab bo‘lgan gunohi shunday sodir bo‘lgan edi.” (A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari”

ISSN 3030-3907

7	Burni ko‘tarilmoq	Osmonda uchmoq, o‘zidan ketmoq, kerilib qolmoq, o‘ziga bino qo‘ymoq dimog‘i shishdi.	Kibrlanish, manmanlik qilish.	Rus: Задирать нос Eng: To be stuck up	“Qozing yo Hojilatif devonbeging hozir birontamizga burnini ko‘tarib gapirsa, hammamiz darrov arazlab ketamiz.” (S.Ayniy. Qullar)
8	Yuragi po‘kkillamoq	O‘takasi yorilmoq, es-hushi uchib ketmoq, rangi quv o‘chmoq, jonini hovuchlamoq, yuragi qinidan chiqmoq.	Qattiq qo‘rqish, vahimaga tushish.	Rus: Сердце в пятки Eng: To be terrified	"Qoron g‘uda sharpa ko‘rib, yuragi po‘kkillab qoldi." (M. Ismoiliy)
9	Oyog‘i qo‘liga tegmaslik	Yelib-yugurmoq, tinchlik bilmaslik, jonini jahdiga bermoq, oyog‘i yerga tegmay.	biror yumushni tinimsiz harakatlanib bajarmoq, yelib-yugurib xizmat qilmoq.	Rus: Бежать сломя голову Eng: To be very busy	“Hojarbibining oyog‘i qo‘liga tegmaydi. Keldi-ketdi, kechalari sham yetishmaydi”(A.Muxtor. Opa-singillar)
10	Xamirdan qil sug‘urgandek	Suv tekinga, pistadek gap, ko‘z ochib yumguncha	Ishni oson va muammosiz hal qilish.	Rus: Как по маслу Eng: Smooth as butter	"U bu mushkul ishni hamirdan qil su g‘urgandek bitirdi." (P. Qodirov)

ISSN 3030-3907

		, qiyinchiliksiz.			

Iboralar korpusining xuddi shu xususiyatlarini tasviriy ifodalarga qo‘llagan holda ularning ham korpus lingvistikasidagi elektron tizimini yaratish mumkin. Tasviriy ifodalar (perefraza) - narsa-buyum, shaxs yoki voqea-hodisaning nomini to‘g‘ridan to‘g‘ri aytmasdan, uning eng xarakterli belgi va xususiyatlarini tasvirlash orqali ifodalashdir. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning, shaxslarning (*g‘azal mulkining sultoni – Alisher Navoiy*) obrazli tarzda ifodalangan ikkinchi nomidir. Bu usul nutqning ta’sirchanligini oshirish, gapni badiiy bo‘yoqlar bilan bezash, takrorlarning oldini olish, madaniy unsurlarni yoyish uchun xizmat qiladi. Quyida tasviriy ifodalarning ham korpusi namuna sifatida tuzib chiqilgan.

2-Jadval

O‘zbek adabiy tilidagi tasviriy ifodalarning korpusini tuzish namunasi.

№	Tasviriy ifoda	Asl nomi	Ruscha / Inglizcha tarjima	Sinonimlari	Badiiy izohi
1.	**Musaffo osmon haydovchilari**	Uchuvchilar	Пилоты неба / Pilots	Havo lochinlari, samoviy burgutlar, qanotli do‘stlar, uchuvchi xodimlar, ko‘k egalari	Tinchlik posboni bo‘lgan musaffo osmon haydovchilari yurtimiz sarhadlarini hushyor qo‘riqlamoqdalar.
2.	**Oq oltin**	Paxta	Белое золото / White gold	Oq oltin, milliy boylik, oq tola	Dalalarda kumush qishloq yig‘im-terimi qizg‘in pallaga kirdi.
3.	**Zangori kema**	Traktor	Степной корабль / Tractor	Yer haydovchi, po‘lat tulpor, dehqon	Zangori kema dalani xuddi qog‘ozdek tilib, kuzgi shudgorni

ISSN 3030-3907

				yo‘ldoshi, dala kemasi, texnika mo‘jizasi	boshlab yubordi.
4.	**O‘rmon podshohi**	Arslon	Царь зверей / King of beasts	Hayvonlar sultoni, changalzor hukmdori,	O‘rmon podshohi bitta o‘kirishi bilan barcha jonivorlarni titratdi.
5.	**Sahro kemasi**	Tuya	Корабль пустыни / Ship of the desert	Qum barxani yo‘lovchisi, chidamlilik timsoli, karvonboshi, cho‘l texnikasi.	Qizilqum bag‘rida sahro kemalari sokin odimlab borardi.
6.	**Bilim maskani**	Maktab	Храм знаний / School	Ma’rifat uyi, ilm dargohi, ta’lim dargohi, ziyo maskani	Har bir bola uchun bilim maskani — kelajakka ochilgan ilk eshikdir.
7.	**Zangori olov**	Gaz	Голубой огонь / Natural gas	Yer osti ne’mati, zangori yoqilg‘i, tabiiy boylik, xonadon nuri, energo-manba	Qishning sovuq kunlarida zangori olov har bir xonadonga iliqlik baxsh etadi.
8.	**Qora oltin**	Neft / Ko‘mir	Черное золото / Black gold	Yer osti xazinasi, yonilg‘i	Mamlakat iqtisodiyotida qora oltin qazib

ISSN 3030-3907

				manbai, sanoat qoni, qora boylik, kon ne’mati	olish muhim o‘rin tutadi.
9.	**Dalalar malikasi**	Makkajo‘xori	Королева полей / Queen of fields	Sariq boshoq, bo‘ydor ekin, hosil nuri, chorva ozuqasi.	Dalalar malikasi bu yil har qachongidan ham mo‘l hosil berdi.
10.	**Riyoziyot sultoni**	Al-Xorazmiy	Султан математики / King of Algebra	Buyuk alloma, ilm yulduzi, algoritm asoschisi.	Riyoziyot sultoni Al-Xorazmiy jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan.
11.	**Mo‘yqalam sohibi**	Rassom	Мастер кисти / Artist	San’atkor, tasvirchi, ijodkor, ranglar ustasi, rasm chizuvchi	Yosh mo‘yqalam sohibi tabiat manzarasini mahorat bilan tasvirladi.
12.	**Hayot manbai**	Suv	Источник жизни / Source of life	Obi hayot, tiriklik asosi, shaffof ne’mat, tabiat qoni, muqaddas ne’mat.	Suv — bu hayot manbai, uni isrof qilishga haqqimiz yo‘q.
13.	**Qanotli do‘stlar**	Qushlar	Пернатые друзья / Feathered friends	Havo yo‘lovchilari, sayroqi qushlar, tabiat ziynati, osmon mehmonlari	Bahor kelishi bilan qanotli do‘stlarimiz uzoq o‘lkalardan qaytishdi.

ISSN 3030-3907

14.	**G‘azal mulkining sultoni**	Alisher Navoiy	Султан поэзии / Sultan of poetry	Buyuk shoir, so‘z piri, ma’naviyat quyoshi, ulug‘ mutafakkir, o‘zbek adabiyoti quyoshi.	G‘azal mulkining sultoni asarlari asrlar osha yashab kelmoqda.

XULOSA.

2021- yilda o‘zbek tilining ta’limiy korpusi yaratilgan edi. Oradan qancha vaqt o‘tsa ham, o‘zbek tilining ta’limiy korpusi hali to‘liq shakllanmagan. Zero, korpus birdaniga paydo qilinadigan tizim emas. Uning shakllanishi, rivojlanishi va kengayishi uchun vaqtlar va lingvistik izlanishlar zarur bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasining dastlabki nazariyalargina ishlab chiqilgan, amaliyoti endigina yo‘lga qo‘yilgan yosh soha hisoblanadi. So‘ngi yillarda bu sohadagi B.Mengliyev, Sh.Xamroyeva, N.Abdurahmonova, M.Abjalova, A.Eshmo‘minov, O‘.Xoliyorov, G.Toirova. D. O‘rinboyeva, G. Begmatova, B. Elov, A. Raxmonovalarning izlanishlarini keltirish mumkin. Bu izlanishlar asosida mualliflik korpuslarini tuzishning lingvistik asoslari, tabiiy tilni qayta ishlash, sinonim so‘zlarni semantik teglash, atov birliklarni leksik-semantik teglash, o‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish, elektron korpuslar modellari, korpus tuzishning kompyuter usullari tadqiq etildi.[14]

Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limida o‘rganiladigan idiomalarning namunaviy bazasi, korpusi to‘g‘risida hamin qadar ma’lumotga ega bo‘ldik. Korpus lingvistikasining o‘rganish obyekti bilan tanishar ekanmiz. Korpus tuzishning naqadar mushkul ekanligini anglashimiz kerak. Yana shuni ham aytish kerakki, o‘zbek tili milliy korpusini tuzishda tilshunoslikning so‘z, ibora hamda uning ma’nolarini o‘rganuvchi leksikologiya bo‘limi asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimining bir necha ming yillik tarixidagi barcha ma’no xazinalari ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan birikmalarimizda, maqol, matal, aforizm va tasviriy ifodalarimizda o‘z aksini topgan. Biz tilimizning dunyoga yoyish bilan birga o‘zbek madaniyatini ham jahonga tarannum etamiz.

[14] M.Abjalova. Korpus lingvistikasi. Uslubiy qo`llanma. Toshkent.2022.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Rahmatullayev, Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmanova, Iqbol O‘razova, Kamola Rixsiyeva “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”. G‘afur G‘ulom nashriyoti. - TOSHKENT – 2022.
2. Rahmatulayev.Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari.-Toshkent,1966.
3. Mamatov.A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Filol.f. doktr…diss.- Toshkent, 1999.
4. Baxtiyor Mengliyev, Mahbuba Xudoyberdiyeva, Oynisa Boymatova “O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati”. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Xolmonova Z. Kompyuter lingvistikasi (o‘quv qo‘llanma) Toshkent- 2019
6. Rahimov A. Kompyuter lingvistika asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2011.
7. Polatov A. Kompyuter lingvistikasi Toshkent: Akademnashr, 2014.
8. https://kun.uz/news/2020/10/18/baxtiyor-mengliyev-ozbek-tilining-ham-milliy-korpusi-yaratilishi-lozim.
9. http://modmorph.turklang.net/ru/
10. http://www.promt.com/company/technology/hybrid_technology
11. http://www.dialog-21.ru/Archive/Directions/JPTRANSF.htm
12. https://universaldependencies.org/
13. https://www.clarin.eu/resource-families/parallel-corpora
14. https://www.sketchengine.eu/quick-start-guide/parallel-corpus-lesson-7/
15. http://opus.nlpl.eu/
16. https://www.llas.ac.uk/resources/gpg/1444

ISSN 3030-3907